

## DINIY BAG‘RIKENGLIK VA DINIY QADRIYATLARNING YOSHLAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI MASALASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14544797>

**Karimova Madinabonu Dilshodbek Qizi**

Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Iqtisodiyot va pedagogika” fakulteti

“Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedraasi assistenti

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada insonning e’tiqod hamda faoliyat birligini yoritib berishga harakat qilindi. Shuningdek, dinlarning insoniyatni doim toyuvlik va ahillikka chaqirishi, hech qachon urush va beqarorlikka undamasligiga e’tibor qaratildi. Yangi O‘zbekiston yoshlariga bag‘rikenglik tushunchasini singdirishda prizident asarlaridan foydalanildi.*

**Kalit so‘zlar:** *Aqida, e’tiqod, muqaddas dinimiz, radikal diniy oqim, sof e’tiqod, ilm ahli, hunar sohiblari, e’tiqod va amal birligi, komil inson, yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.*

Dunyo yaralganidan buyon odamzod millati, dini, irqidan qat’iy nazar birgalikda yashab keladi. Tinchlik, totuvlik, millatlararo bag‘rikenglik hamda turli dinlararo tolerantlik va do‘stlik munosabatlari har qanday jamiyat va mamlakatning rivoji uchun mustahkam asos hisoblanadi.

“Bag‘rikenglik” tushunchasining ta’riflari soni doimiy ravishda yangilanadi. Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasining 1-moddasida bag‘rikenglikka quyidagicha ta’rif berilgan: “Bag‘rikenglik – bu yon berish, kamsitish yoki indulgensiya emas. Tolerantlik, eng avvalo, insonning umuminsoniy huquqlari va boshqalarning asosiy erkinliklarini tan olishdan kelib chiqadigan faol munosabatdir. Bag‘rikenglik alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Bag‘rikenglik – bu bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, muloqot va hurfiyr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi. Bag‘rikenglik bu turli-tumanlikdagi birlikdir”

UNESCO tomonidan 1995-yil 16-noyabrda qabul qilingan “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”dagi “tolerant” so‘zi o‘zbek tilimizga “bag‘rikenglik” deya tarjima qilinganidan so‘ng bu so‘z tilimizda o‘rnashib qoldi. Bag‘rikenglik bilan bir

qatorda diniy bag‘rikenglik so‘zi ham keng qo‘llaniladi. Diniy bag‘rikenglik bu turli din vakillarining e‘tiqodidagi aqidaviy farqlardan qat‘iy nazar, bir yerda yon-ma yon, tinch-totuv, o‘zaro hamkorlik hamda do‘stlik munosabatlarida yashashlaridir. Shuningdek, diniy bag‘rikenglik – xilma-xil e‘tiqodda bo‘lgan kishilarning olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamjihat bo‘lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo‘lida xizmat qilishini anglatadi. Hozirda bu g‘oya ezgulik yo‘lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a‘zolari hamkorligini nazarda tutadi.

Albatta, diniy bag‘rikenglik jarayoni o‘z-o‘zidan, tasodifan yuzaga kelmaydi, balki u demokratik jamiyat qurish yo‘lidan borayotgan davlatning adolatli siyosati hosilasidir. Davlat nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarida, balki turli millatlar va dinlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni, bag‘rikenglikni ta‘minlashda ham yetakchi va asosiy bo‘lishi zarur bo‘ladi.

Qur’oni karimda kishining e‘tiqodiga dahl qilib bo‘lmasligi, biror dinga ishonish va e‘tiqod qilish insonlarning shaxsiy ishi ekani va bu har kimning o‘z vijdoniga havola ekani aniq bayon etilgan.

Umuman olganda, Qur’oni karimning 50 dan ortiq surasidagi yuzlab oyatlarda musulmonlar tinchlikparvarlik va boshqa din vakillariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatlarida bo‘lishlariga da‘vat etilgan. Xususan, Mumtahana surasi 8-oyatda shunday deyiladi: “Dinlaringiz to‘g‘risida sizlar bilan urushmagan va sizlarni o‘z diyorlaringizdan (haydab) chiqarmagan kimsalarga nisbatan yaxshilik qilishlaringizdan va ularga adolatli bo‘lishlaringizdan Alloh sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolatlilarni sevar”.

Shunday ekan, diniy bag‘rikenglik zamonaviylikning asosi va jamiyatlarning rivojlanishiga imkon beradi. Bu jamiyatning har bir a‘zosiga teng huquqlar asosida davlati rivojiga hissa qo‘shish imkonini beradi. Diniy bag‘rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo‘lgan, xilma-xil dinlarga e‘tiqod qiluvchi va bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan turli xalqlar, millatlar yashagan va yashab kelayotgan o‘lkadir. Shubha yo‘qki, diniy bag‘rikenglik munosabati xalqimizga xos alohida fazilat bo‘lib qolgan.

Bugun yoshlarning dinga bo‘lgan munosabatlari turlicha ekanligi va mustaqil qarashlari borligi yaxshi, ammo ularni ayrim hollarda, ba’zi bir diniy aqidalarga moyil bo‘lgan guruhlariga qo‘shilib qolib chalg‘iyotganligi ham sir emas. Bunday guruhlarning o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi esa islom dini niqobi ostida siyosiy kurash, yoshlarimizning, shu bilan birga, butun ommaning siyosiy ongiga ta’sir ko‘rsatish, buzg‘unchi aqidalardan qurol sifatida foydalanishdir.

Dunyoda biron din yo‘qki, unda insoniyat saodati maqsad qilib olinmagan bo‘lsa. Aksincha, radikal diniy oqimlar va ularning kichik guruhlar ham, bugun insoniyat xotirjamligi, tinchligi yo‘liga g‘ov bo‘libgina qolmasdan, hatto talofat va tashvishlar keltirayotgani, bugun ham ular tegirmoniga suv quyuvchilar mavjudligidan, ularga ergashayotganlar topilayotganligidan dalolatdir.

Sobiq ittifoq davrida dinni kamsitish, imomlarni yo‘qotish va omon qolganlarini bo‘ysundirish uchun eng keskin choralarni ko‘rgan edi. Din sun‘iy ravishda mafkuraviy kurashning o‘ta qizg‘in jabhalaridan biriga aylantirib qo‘yilgan edi. Dastlab, minglab masjidlar va yuzlab madrasalar buzib tashlandi. Bu obidalarining ko‘pchiligi xalqimiz uchun, insoniyat sivilizatsiyasi uchun bebaho me‘moriy va tarixiy qadriyat hisoblanar edi. Islomiy ma‘rifat taqiqlab qo‘yilgan bu davrda, chin ma‘nodagi bilimdon islom murabbiylari yo‘q qilindi. Natijada, jaholatparast udumlar rivoj topdi, “chala mullalar” hozirgi kunda, aksariyat hollarda oliy haqiqatni faqat ulargina bilishlarini, odamlarning taqdirini hal etish huquqini da‘vo qilib chiqdilar va bunga jalb etishga xamon urinmoqdalar. Ularning bu so‘zlariga aksariyat hollarda ayrim yoshlarimiz aldanib qolishlariga asosiy sabab ham, ularning, avvalo, oilada, so‘ng ta‘lim muassasalarida yetarlicha bilim olmaganligi, islom dinining tub mohiyatini to‘liq bilmaganliklaridir. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov o‘zining “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida shunday deydi: “Muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g‘arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo‘htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o‘rib kelayotgan yosh avlodimizga to‘g‘ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g‘oyalarini keng targ‘ib etish vazifasi hamon dolzarb bo‘lib kelmoqda”.

Bizning muqaddas dinimiz haqqoniyligi va bag‘rikengligi, odamzodning doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o‘zini oqlagan qadriyat va an‘analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o‘rni va ahamiyati bilan va xalqimizning ma‘naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, islom dini, unga e‘tiqod qiluvchilarni ilm olishga, ma‘rifatli bo‘lishga da‘vat etadi. Ilk vahiy ham “O‘qi!” degan amr bo‘lganligi buning yaqqol isbotidir. “Ilm” so‘zi Qur‘onning sakkiz yuz o‘n bir joyida turli ma‘nolari bilan kelgan.

IX-XII asrlarda G‘arbda aholining 95 foizi savodsiz bo‘lganligi, hatto diniy ulamolar ham o‘qishni, qo‘llariga qalam tutib yozishni bilmagan bir vaqtda musulmon o‘lkalardan diniy va dunyoviy barcha fanlarning ilg‘orlari yetishib chiqdi va ancha muddat “Arab sivilizatsiyasi” nomi bilan atalib kelindi. Shu davrda musulmon olamida ilmning turli sohalarida sakson olti mingga yaqin yirik olimlar ish olib borganligi, biz bebaho hisoblagan, ma‘naviy meros va mulk egasi ekanligimizning isbotidir.

Yoshlar qaysi sohani tanlashmasin, o‘z sohasi bo‘yicha yetarlicha bilimga ega bo‘lishlari kerak. Muqaddas dinimizda keltirilgan qirqta asosiy farzlardan biri ham ilm izlash farzidir. “Ilm yo‘lidagi kishi Ollohning himoyasidadir”, deyiladi hadislarning birida. Ota-bobolarimiz o‘z farzandini odamlarga yaxshilik qiladigan, oriyatli, nomusli qilib tarbiyalashgani va odob, axloq bilan birga, ilmni ham o‘rganishlariga alohida e‘tibor ko‘rsatishgan. Hazrat Ali: “Farzandlaringizga davr ilmini o‘rgatinglar, ular sizning davringizdan boshqa davrda dunyoga kelgandir”, - deganlar. Bu o‘gitga amal qilgan millatning kelajagi porloq bo‘ladi.

Hadislardan birida shunday deyilgan: “Yer yuzidagi amallarning afzali uchta: ilm talab qilish, nafsiga qarshi kurashish va kasb qilish. Ilm talab qiladigan inson Ollohning sevikli bandasidir. Nafsiga erk bermaydigan inson Ollohning yaqinidir. Hunarli esa Ollohning do‘stidir” .

Yoshlarning jamiyatdagi faolligi tobora oshib borayotgan bugungi davrda ular erishayotgan ulkan yutuqlarni e‘tirof etgan holda, ularda ma‘naviy mukammalikni oshirish uchun quyidagilarni inobatga olish kerak:

- ular fanning qaysi sohasida ijod qilishmasin, diniy qadriyatlardan xabardor bo‘lishi;
- tarixiy xotiraga ega bo‘lish zarurati;
- o‘zliklarini anglashi;
- mustaqil fikrga ega va boshqalarga tolerant munosabatdabo‘la olishi lozim.

Yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish milliy qadriyatlarimizning asoslaridan biri bo‘lmish diniy e‘tiqod masalasida dinning mazmun-mohiyatini to‘liq anglagan holda amal qilish muhimdir. Shundagina diniy qadriyatlarning ilm-u fan rivojidagi o‘rni yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hozirda yurtimiz aholisining katta qismini islom diniga e‘tiqod qiluvchi musulmonlar tashkil qilishiga qaramay, diniy konfessiyaga mansub tashkilotlar erkin, o‘zaro hamjihatlik, bag‘rikenglik ruhida faoliyat yuritayotgani va qonunga muvofiq, ularning har biri o‘z faoliyatida bir xil huquq va erkinliklarga ega ekani yuqorida aytilgan fikrlarning yaqqol namunasidir.

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. “Tafsiri hilol”. Toshkent – “Hilol nashri”.2017.
2. Muhammad Abiy Homid G‘azzoliy, Ihyau ulumid din, amru ma‘ruf nahiy, munkar kitobi 3- jild, Bayrut.
3. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur‘oni Karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri. Toshkent 2006. “Toshkent Islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi 2006.

4. Mahammadovna, S. I. (2021). Needs and factors for developing professional and creative abilities of students of higher educational institutions. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2200-2209.
5. Maxammadovna S. I. O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash: Ijtimoiy xizmatlar agentligi misolida //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2023.
6. Mahammadovna, S. I. (2023). Features of Cluster Design in Modern Paradigms of Education. *Telematique*, 22(01), 348-355.
7. Sirodjiddinova I. zTa'lim jarayonida innovation texnologiyalar //Sifrovizatsiya sovremennogo obrazovaniya: problema i resheniye. – 2023. – T. 1. – №. 1. – S. 57-60.
8. Nasirov, I. Z., & Sirojiddinova, I. M. (2023). «Buzuq telefon» pedagogik texnologiyasi asosida mashg'ulotlarni olib borish. *PEDAGOG*, 6(2), 291-298.
9. Sirojiddinova, I. (2022). Metodika smeshannoy otborki pri kompleksnom proyektirovanii professionalnoy podgotovki budущix injenerov. *Obshchestvo i innovasii*, 3(7/S), 87-92.